




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

24 avgust, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 24 iyul 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,258% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,255% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,515% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,558% darajaga oshdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,106% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,113% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,331% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,271% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,356% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,350% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,66% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich biroz pasayib — 3,63 darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,524% (3 oylik) va 2,765% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,765% (6 oylik) va 2,524% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 1156,4 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 315,6 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 857 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 847 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya o,88% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




24.08.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Kapital bank* da qayd etilgan – 11 910 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 11 905 – 11 870 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Turon bank*da qayd etilgan – 11 850 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 845 – 11 770 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: kursning mo'tadil pasayishi

2026-yil 17–21-avgust davrida USD/RUB kursida mo'tadil pasayish kuzatildi. Kurs 85,4 rubldan 83,7 rublgacha o'zgardi. Haftaning dastlabki kunlarida dinamika nisbatan barqaror bo'lib, kurs 85,3–85,4 rubl atrofida saqlandi. 20-avgustdan boshlab rublning sezilarli darajada mustahkamlanishi boshlandi va 21-avgustga kelib kurs 83,7 rublgacha pasaydi. Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan davr oxirida rublning dollarga nisbatan kuchayishi kuzatildi. Qisqa muddatli kurs dinamikasi pasayish yo'nalishida baholanmoqda. Valyuta bozorini va kursning keyingi o'zgarishlarini monitoring qilishni davom ettirish tavsiya etiladi.



RUB/CNY: rublning mo'tadil ijobiy dinamikasi

2026-yil 17–21-avgust davrida RUB/CNY kursi 12,6 rubldan 12,2 rublgacha pasaydi. Eng sezilarli pasayish ko'rib chiqilayotgan davrning boshida yuz berdi. Keyingi kunlarda kurs 12,2–12,3 rubl oralig'ida nisbatan barqaror saqlandi. 21-avgustga kelib ko'rsatkich 12,2 darajasiga yetdi, bu tahlil qilinayotgan davrdagi eng past qiymat hisoblanadi. Umuman olganda, dinamika rublning yuanga nisbatan mustahkamlanganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, so'nggi kunlarda kursda nisbatan barqarorlashuv kuzatildi.




EUR/USD: yevroning mustahkamlanishi


2026-yil 17–21-avgust davrida EUR/USD kursi ijobiy dinamikani namoyish etdi. Ko'rsatkich 1,1614 dan 1,1711 gacha oshdi. 18-avgustdagi kichik pasayishdan so'ng kurs o'zgarib, bosqichma-bosqich ko'tarila boshladi. Eng sezilarli o'sish 19-avgustga to'g'ri keldi, shundan so'ng juftlik 1,171 darajasi atrofida saqlandi. 21-avgustga kelib kurs ko'rib chiqilayotgan davrdagi maksimal qiymat — 1,1711 ga yetdi. Umuman olganda, dinamika yevroning dollarga nisbatan mo'tadil mustahkamlanganini ko'rsatmoqda. Qisqa muddatli trend o'sish yo'nalishida baholanmoqda.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin barqaror o'sishni namoyish etmoqda



2026-yil 17–21-avgust davrida oltin narxi ijobiy dinamikani namoyish etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda ko'rsatkich 4 415,2 dollardan 4 640,9 dollargacha oshdi. 18-avgustdagi pasayishdan so'ng bozor tezda tiklandi va o'sishni davom ettirdi. Eng sezilarli o'sish 19-avgustda qayd etildi — 4,34%. 21-avgustga kelib oltin narxi tahlil qilinayotgan davrdagi maksimal qiymat — 4 640,9 dollarga yetdi. Dinamika oltinga bo'lgan yuqori talab va bozor ishtirokchilarining ijobiy kayfiyati saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, qisqa muddatli trend o'sish yo'nalishida baholanmoqda. Shu bilan birga, volatillik saqlanib qolmoqda, shuning uchun narx dinamikasini monitoring qilishni davom ettirish maqsadga muvofiq.

Brent narxi o'sishda davom etmoqda



2026-yil 17–21-avgust davrida Brent nefti narxi ijobiy dinamikani namoyish etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda narx 90,87 dollardan 94,39 dollargacha oshdi, bu 3,87% o'sishni tashkil etadi. Davr mobaynida neft narxining izchil o'sishi kuzatildi. 21-avgustga kelib narx maksimal qiymat — 94,39 dollarga yetdi. Mazkur dinamika neftga bo'lgan talabning kuchayishi va neft bozoridagi ijobiy kayfiyatni ko'rsatmoqda. Umuman olganda, qisqa muddatli trend o'sish yo'nalishida baholanmoqda. Shu bilan birga, narx dinamikasi hamda neft bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni monitoring qilishni davom ettirish tavsiya etiladi.

TTF gazi o'z pozitsiyalarini mustahkamlamoqda



2026-yil 17–21-avgust davrida TTF gaz bozorida narxlarning sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Hafta davomida kotirovkalar 71,8 dan 76,8 gacha ko'tarilib, 6,96% o'sishni qayd etdi. Eng sezilarli o'sish 19-avgustda kuzatildi, o'shanda narx 74,2 darajasiga yetdi. Shundan so'ng ijobiy dinamika saqlanib qoldi va 21-avgustga kelib gaz narxi ko'rib chiqilayotgan davrdagi maksimal daraja — 76,8 ga yetdi. Umuman olganda, bozor barqaror o'sish tendensiyasini namoyish etmoqda. Kotirovkalarning o'sishi gaz bozoridagi narx bosimining kuchayganini ko'rsatmoqda. Mazkur tendensiya narxlar dinamikasini keyingi davrda ham kuzatishni talab qiladi.